



XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA HISOB SIYOSATI AMAL
QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Boltayev Jasurbek Baxodir o'g'li

Termiz davlat universiteti,

Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va soxalar bo'yicha) yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu tezisda xo'jalik yurituvchi subyektlarda hisob siyosatini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Asosiy e'tibor O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (MXHS) moslashtirish, 2024-yil 6-avgustda tasdiqlangan 1-sonli BHMS talablariga asoslangan hisob siyosatini ishlab chiqish va yirik hamda kichik biznes subyektlari uchun yagona namunaviy siyosatni joriy etish zaruratiga qaratilgan. Tezisda mavjud muammolar ko'rsatilib, ularni hal etish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: hisob siyosati, MXHS, BHMS, buxgalteriya hisobi, yirik biznes, kichik biznes, normativ hujjatlar

Аннотация. В данной тезисной работе рассматриваются вопросы совершенствования учетной политики в хозяйствующих субъектах. Основное внимание уделяется необходимости внедрения учетной политики в соответствии с Международными стандартами финансовой отчетности (МСФО), а также адаптации политики к требованиям Национального стандарта бухгалтерского учета №1 от 6 августа 2024 года. Также обоснована необходимость разработки типовой учетной политики для субъектов крупного и малого бизнеса. В работе отражены существующие проблемы и предложены пути их решения.

Ключевые слова: учетная политика, МСФО, НСБУ, бухгалтерский учет, крупный бизнес, малый бизнес, нормативные документы

Annotation. This thesis explores the issues related to improving accounting policies in business entities. It focuses on the need to implement accounting practices in accordance with International Financial Reporting Standards (IFRS), adapt them to the requirements of National Accounting Standard No. 1 adopted on August 6, 2024, and develop a unified model policy for both large and small business entities. Existing challenges are identified, and practical solutions are proposed.

Keywords: accounting policy, IFRS, NAS, financial reporting, large business, small business, regulatory documents





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OVALAR



Bozor munosabatlari chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisob va hisobot tizimining shaffofligi, xalqaro standartlarga mosligi va amaliyotga tatbiq etilishi dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, hisob siyosati orqali xo‘jalik subyektining moliyaviy holatini to‘g‘ri ifodalash, investorlar, soliq organlari hamda manfaatdor tomonlar uchun ishonchli axborotlar taqdim etish zarurati ortib bormoqda.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasida 2024-yil 6-avgustda qabul qilingan 1-sonli “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish va hisob siyosati” nomli Buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS)ga mos holda hisob siyosatini ishlab chiqish va joriy etish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Ushbu hujjat buxgalteriya hisobini yuritishda yagona yondashuvni ta’minalash hamda xalqaro standartlarga muvofiqlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Amaliyotda bir nechta muammolar mavjud:

- Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning, ayniqsa kichik va o‘rta biznes vakillarining, hisob siyosatini ishlab chiqishda metodik bilim va malaka yetishmasligi;
- Turli sektor va hajmdagi korxonalar uchun yagona yondashuvning yo‘qligi;
- Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (MXHS) o‘tishda texnik va metodologik qiyinchiliklar;
- Yangi BHMSlar asosida ish yuritish bo‘yicha malakali kadrlar taqchilligi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi asosiy yo‘nalishlarda ishlarni tashkil etish lozim:

1. Yirik soliq to‘lovchilar va boshqa yirik korxonalar tomonidan MXHSga o‘tish munosabati bilan, MXHSga muvofiq hisob siyosatini ishlab chiqish amaliyotini joriy etish. Bu orqali korxonalar moliyaviy hisobotlarining xalqaro bozorlar uchun ochiqligini ta’minalashi, xorijiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlari kengayadi.

2. Hisob siyosatini ishlab chiqishda 2024-yil 6-avgustdagagi 1-sonli BHMS talablariga moslashtirishni amaliyotga targ‘ib qilish. Bu – milliy standartlar orqali yagona yondashuvni shakllantirishga, buxgalterlar va auditorlar o‘rtasida tushunmovchiliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

3. Yirik biznes va kichik biznes subyektlari uchun yagona namunali hisob siyosatini ishlab chiqish va joriy etish. Ushbu namunaviy siyosatlar yordamida subyektlar o‘z faoliyatiga moslashtirilgan holda, tartibga soluvchi organlarning tavsiyalariga tayangan holda ish yurita olishadi. Bu, ayniqsa, malakali buxgalterlar yetishmayotgan kichik korxonalar uchun foydalidir.

Xulosa qilib aytganda, hisob siyosatini takomillashtirish – buxgalteriya hisobi tizimini yanada shaffof, aniqligi yuqori va xalqaro andozalarga mos shakllantirishda





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



muhim qadamlardan biridir. Bu yo‘lda normativ-huquqiy bazani mustahkamlash, namunaviy hujjatlarni ishlab chiqish va amaliy targ‘ibotni kuchaytirish zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-404-son, 2016-yil 13-aprel,
2. 1-sonli BHMS – “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish va hisob siyosati”, 2024-yil 6-avgust.

